

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

**Imom Zarnujiyning “Talabalarga ilm olish yo'llarini o'rgatish” asarida  
ilm olishga intilish masalalarini o'ziga xos talqini**

***Xolmatov Ashurali Rajabovich***

*Buxoro OSIYO XALQARO UNIVERSITETI Pedagogika va psixologiya  
yo 'nalishi mutaxassisligi MM8-PP-22 guruh magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Samarqandda yashab ijod qilgan ulug‘ alloma, hanafiy fiqhi olimi, adib, bir necha asarlar muallifi Imom Zarnujiy, u kishining “ta’lim al-mutaallim” asari, asarda ilm talabida bo‘lgan o‘quvchilar uchun ilm olish sirlari, tolibi ilmda topilishi kerak bo‘lgan sifatlari, ilm olishga kirishish uchun zarur vositalari, vaqtłari, uslublari, shuningdek, niyat, qat’iylik haqida ba’zi oyat va hadislar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar :** “Ta’lim al-mutaallim”, axloq va tarbiya, niyat, tolibi ilm, sabr-toqatli, nafs, vardavomlik, taqvo, ustoz-shogirt, ilmga yetishish, dangasalik, munozara.

Tolibi ilm tahsil olishni boshlagan paytda niyat qilib olishi zarur. Chunki niyat barcha ishlarning asosidir. Payg'ambar sallalohu alayhi vasallamning: “Barcha ishlar niyatga bog'liqdir”- degan sahih hadislari bunga dalildir. Qanchadan qancha dunyo amali ko'rinishidagi ishlar borki, niyatning go'zalligi tufayli oxirat amaliga aylanib qoladi. Tolibi ilm, ilm talab qilish orqali, Allohning roziligi va jannatga kirishni, shuningdek, o'zi va boshqa insonlardagi jaholatni yo'qotib, dinni tiriltirish va islomni saqlashni niyat qilishi kerak. Chunki islomni saqlash ilm bilan bo'ladi. Ilmsiz ravishda qilingan taqvo va zuhddan foyda yo'q. Hidoya asarining muallifi Burhoniddin Marg'inoniyning ba'zi olimlarga aytgan she'rlari bor. She'r:

Fosiq olim katta fasoddir, Johil obid undanda battar.

Ikkisi olamlarga ulkan fitnadir, Va o'z dinida ularga ergashgan kimsaga.

Shuningdek, ilm talab qilish orqali, Alloh bergen aql va sog'lik ne'matiga

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

shukr qilishni niyat qiladi. Aslo, odamlarni o'ziga qaratish, dunyo matohini qo'lga kiritish va sulton yoki boshqa bir amaldorning huzurida martabaga erishishni niyat qilmaydi. Muhammad ibn Hasan rahmatullohi alayhi:

“Agar, barcha insonlar mening qu'llarim bo'lganda ham, ularning barchasini ozod qilgan bo'lar edim”<sup>1</sup>, deganlar. Shuning uchun ham, kimki ilm va amalning lazzatini totsa, kamdan-kam hollarda odamlarning qo'lidagi narsaga rag'bat qiladi. Buyuk imom, ustoz Shayx Qivomuddin Hammod ibn Ibrohim ibn Ismoil Saffor al-Ansoriy bizga Abu Hanifa rahmatullohi alayhiga yozgan maktubidagi she'rlarini o'qib berdi. She'r:

Kim oxiratni istab ilm o'rgansa, Erishur rushdu hidoyat va fazilatga.

Ey voh, ilmn ni odamlarning qo'lidagi fazilat (narsa)ga erishish uchun o'rganuvchiga xusron bo'lsin.

Allohim! Mansabni o'z nafsi havosini ko'zlab emas, balki, amri ma'ruf (yaxshilikka buyurish) va nahiy munkar (yomonlikdan qaytarish) hamda dinni aziz qilish va hayotga tatbiq qilish uchun talab qilsa bundan mustasno.

Demak, ilm olish bilan mansabni talab qilish amri ma'ruf va nahiy munkarni qoim qilish uchun bo'lsa joiz ekan. Endi, shu ilmini haqir va foniy dunyoga almashmasin. Nabiy sallallohu alayhi vasallam: “Dunyodan saqlaning! Muhammadning joni qo'lida bo'lgan zotga qasamki, albatta u Horut va Morut(ning sehri)dan ham maftunkor”, dedilar. She'r: Dunyo ozlar ichra ozdir, Uning oshig'i xorlar ichra xordir. U sehri ila odamlarni ko'r va kar ayladi, To'g'ri yo'lni topolmay hayrondir ular. Tolibi ilm tama' qilib bo'lmaydigan joylarda (ilm talabida tama' qilish mumkin. Chunki bu xorlik emas ayni azizlikdir) o'zini tama' bilan xorlamasligi va ilm ahli tahqirlanadigan joylardan chetlanishi lozim. Shuningdek, u tavozeli bo'lsin<sup>2</sup>.

Tavozelik bu takabburlik va xokisorlikning o'rtasidagi holat.

Yana qiyinchilik va balolarga sabr qiladi. Aytishicha, ne'matlar xazinasi

<sup>1</sup> Fitriyah F. K. et al. A New Approach to Counseling Relations in Islamic Boarding Schools Based on the Ta'limul Muta'alim Book: An Emancipatory Hermeneutical Study //Journal of Islamic Civilization. – 2022. – T. 4. – №. 2. – C. 186-195.

<sup>2</sup> Bela N., Jannah S. R., Jaenullah J. An Analysis of Book T'alimul Muta'alim on Education Character and It's Relationship with Education Character Programs at Indonesia //Bulletin of Pedagogical Research. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 10-37.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

mehnatlar qopidadir. Menga bir she'r o'qib berildi. Aytishlaricha bu she'r Ali ibn Abu Tolib karramallohu vajhahuniki ekan. Ilm yo'lida sherik tanlashga kelsak, u tirishqoq, taqvodor, farosatlik va to'g'ri tabiatli bo'lsin. She'r:

Kishi haqinda so'rmasdan oshnasiga sol nazar,

Chunki oshna oshnasiga ergashar.

Gar bo'lsa u yomon, darhol undan uzoqlash,

Aksi bo'lsa, yaxshi deb, ergash unga yaqinlash.<sup>3</sup>

Ilm yo'lida sherik tanlashga kelsak, u tirishqoq, taqvodor, farosatlik va to'g'ri tabiatli bo'lsin. Sherikning dangasa, erinchoq, vaysaqi, buzg'inchi va fitnachisidan qochish kerak.

Tolibi ilm tirishqoq, darsda bardavom va mulozamatli bo'lishi kerak. Bunga Qur'on karimda ham ishora bor. Alloh taolo Maryam surasining 12 oyatida: «Ey Yahyo, kitobni quvvat-la ol!» (dedik). Va unga go'dakligidayoq hukmni berdik<sup>4</sup> deb, marhamat qilgan. Shuningdek, Ankabut surasining 69 oyatida: “Bizning (yo'limizda) jiddu jahd qilganlarni O‘z yo'llarimizga hidoyat eturmiz. Albatta, Alloh chiroyli amal qilguvchilar bilandir”<sup>5</sup>, degan.

Aytishicha, qiyinchilikning miqdoriga qarab ko'zlagan maqsadlarga yetilar ekan. Ta'lim olishda uch kishiga ehtiyoj seziladi. 1. Tolibi ilm. 2. Ustoz. 3. Ota (agar tirik bo'lsa). Shayx, buyuk imom, ustoz Sadiduddin She'roziy menga Imom Shofeyning she'rlarini o'qib berdi. Abu Tiyb Mutanabbiy: "Odamlarning ayblari ichida, biror narsani mukammal qilishga qodir bo'la turib, chala yarim holda qoldirishi kabi aybli ishni ko'rmadim", degan. Tolibi ilm tunlarini bedor o'tkazishi juda ham zarur. Bu haqda shunday she'r bor. Kim tunlari bedor bo'lsa, kunduzi ham qalbi quvonchga to'la bo'ladi. Tolibi ilm darsda bardavom bo'lish bilan birga kechaning avvali va oxirgi qismida ko'p takror qilishi kerak. Chunki

<sup>3</sup> Imam Zarnujiy. “Ta’lim al-mutaallim tariq at-taallum”. – Qozon: Imperrator universiteti “типо-литография” nashriyoti, 1901.

<sup>4</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Tafsiri Hilol” 1-juz “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati Toshkent 2008.

<sup>5</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Tafsiri Hilol” 1-juz “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati Toshkent 2008.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

shom va xufton namozlari orasidagi vaqt va sahar pallasi barakalidir<sup>6</sup>.

Birinchi navbatda, Zarnujiy talabalarga muntazam va tartibli ta'limni targ'ib qiladi. U ta'kidlaydiki, talaba ilmini muntazam takrorlashi, yangi bilimlarni o'zlashtirishda davom etishi va ilmiy bahslarda faol ishtirok etishi kerak.

Yana bir muhim jihat - bu o'zaro muloqot va muzokaradir. Zarnujiy ta'lim jarayonida talabalararo va o'qituvchilar bilan muloqotni rivojlantirishni muhim deb hisoblaydi. Bu muloqot talabalarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish, boshqalarning qarashlarini tinglash va qabul qilish orqali o'zaro tajriba almashinuvini ta'minlaydi.

Tolibi ilm o'zini juda qiy nab yubormasligi kerak. Aks holda sustlashib o'qishdan to'xtab qoladi. Shuning uchun ham, bu borada muloyim va mo'tadil bo'lish kerak. Aslini olganda muloyimlik barcha narsalarda asos vazifasini bajaradi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Ogoh bo'linglar!. Bu din mustahkamdir. Shunday ekan unda muloyimlik ila yuringlar va o'zingizni Alloh taoloning ibodatiga majburlamanglar. Chunki yo'lidan kesilgan odamning na yurishga yo'li va na minishga ulovi bo'ladi" , deganlar. Yana bir boshqa hadisda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Nafsing sening ulovingdir. Unga yumshoqlik bilan muomala qilgin", deganlar.

Abu Hanifa rahmatullohi alayhi Abu Yusufga: "Sen esi past eding. Seni undan (darsdagi) bardavomlik qutqardi", degan edi. Dangasalikdan hazir bo'l. Chunki uning turgan bitgani zarardir. Mo'minlar amiri Ali ibn Abi Tolib karramallohu vajhahu bu haqda shunday she'r aytganlar. Manfaatli ilm tufayli yaxshilik ila yod etish qo'lga kiritiladi va bu o'limdan keyin ham davom etadi. Shu jihatdan olim abadiy yashaydi<sup>7</sup>.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "Alloh uch toifa odamga gunoh qilmasa ham, g'azab bilan qaraydi. Ochofat, baxil va mutakabbir", dedilar. Ko'p ovqat yeyishda bir qancha zararlar bo'lib, turli kasalliklar va kalta fahmlik shular

<sup>6</sup> Fitriyah F. K. et al. A New Approach to Counseling Relations in Islamic Boarding Schools Based on the Ta'limul Mut'alim Book: An Emancipatory Hermeneutical Study //Journal of Islamic Civilization. – 2022. – T. 4. – №. 2. – C. 186-195.

<sup>7</sup> Fitriyah F. K. et al. A New Approach to Counseling Relations in Islamic Boarding Schools Based on the Ta'limul Mut'alim Book: An Emancipatory Hermeneutical Study //Journal of Islamic Civilization. – 2022. – T. 4. – №. 2. – C. 186-195.

jumlasidandir.

Shuningdek, meshkaylik ham inson zakovatini so'ndiradi. Jolinus: “Anor (xotirani o'stirishda) juda foydalidir. Baliqning ko'pi zarar. Biroq ko'p anor yeysidan ko'ra bir oz baliq iste'mol qilish foydaliroq”, degan edi. Molni isrof qilish va to'q qoringa yeysish kabi o'ta zararli amallar kishining oxiratda azobga duchor bo'lishiga sabab bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф “Тафсири Ҳилол” 1-жуз “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти Тошкент 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 158.
3. Imom Zarnujiy. “Ta’lim al-mutaallim tariq at-taallum”. – Qozon: Imperrator universiteti “типо-литография” nashriyoti, 1901.
4. Fitriyah F. K. et al. A New Approach to Counseling Relations in Islamic Boarding Schools Based on the Ta'limul Muta'alim Book: An Emancipatory Hermeneutical Study //Journal of Islamic Civilization. – 2022. – T. 4. – №. 2. – C.
5. Bela N., Jannah S. R., Jaenullah J. An Analysis of Book T'alimul Muta'alim on Education Character and It's Relationship with Education Character Programs at Indonesia //Bulletin of Pedagogical Research. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C.
6. Wahid S., Awaliyah T., Trisnawati A. Internalisasi Nilai-Nilai Pendidikan Akhlak Dalam Kitab Ta'lim Al-Muta'allim Pada Semester 1 Di Ma'had Idia Prenduan Tahun 2022 //Journal of Innovation Research and Knowledge. – 2022. – T. 2. – №. 4. – C.